XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 2-iyul VI-143-74-7-105-K/24 Urgut tumani

Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi VI-132-191-7-105-K/23-sonli “Urgut tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 -yil 9-fevraldagi 79-sonli “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda bu borada O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 21-fevraldagi 03/35-6-4041-sonli ko‘rsatma va Urgut tumani iqtisodiyot va moliya bo’limining 2024-yil 27-maydagi № 01/01-38/499-sonli xatlarning ijrosini ta’minlash maqsadida xalq deputatlari Urgut tuman Kengashining oltinch chaqiriq navbatdagi bir yuz qirq uchunchi sessiyasi,

Q A R O R Q I L A D I :

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2.Tumandagi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish va suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etishni davom ettirish hamda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida, xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi VI-132-191-7-105-K/23-sonli “Urgut tumanining 2024 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorining 1-2-ilovalari ya’ni mahalliy byudjet daromadlar (suv solig‘ining prognoz qilingan so‘mmasi) va xarajatlari (Suv yetkazib berish xizmati DM (Irrigatsiya bo‘limi) saqlash xarajatlari) 40 foizga teng miqdorlarda oshirilsin.

3.Quyidagilar:

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi VI-132-191-7-105-K/23-sonli “Urgut tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 1-ilovasiga yangi 1-ilovaga muvofiq:

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi VI-132-191-7-105-K/23-sonli “Urgut tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 2-ilovasiga yangi 2-ilovaga muvofiq qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Muibov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Kamolov) hamda tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (Z.Amonov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

XUDAYKULOV
SHERALI
UMIRZAKOVICH

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2024-yil 2-iyuldagi
VI-143-74-7-105-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2024 yil uchun Urgut tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Jami
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	50 128 000,0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	1 172 000,0
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	31 821 000,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	30 023 000,0
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	5 291 000,0
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6 420 400,0
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 975 000,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	11 774 000,0
9	Aksiz solig‘i, jami *shu jumladan:* *- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i*	6 380 000,0 *6 380 000,0*
10	Aylanmadan olinadigan soliq	17 830 000,0
11	Yig‘imlar	8 820 000,0
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	120 000,0
JAMI		**174 754 400,0**

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2024-yil 2-iyuldagi
VI-143-74-7-105-K/24 -son qaroriga
2-ilova

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
1	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	48 561 462,0
2	Tuman Sog‘liqni saqlash bo‘limi	173 777 708,0
3	Tuman Madaniyat bo‘limi	5 272 732,0
4	Tuman Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	18 640 635,0
5	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	4 016 233,0
6	Tuman Suv yetkazib berish xizmati DM	3 021 900,0
7	Tuman Soliq inspeksiyasi	7 370 429,0
8	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh bo‘limi	9 612 115,0
9	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	1 571 886,0
10	Tuman hokimligi	76 646 110,0
Jami		**348 491 210,0**

2024 yil uchun Urgut tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari